

YANG CONFERENCE.UZ 2023

O'ZBEKISTON: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

DAVRIYLIGI: 2018-2023



Карл Бенц
1885 год
Германия

Мощность:
0,9 л.с.

BIRINCHI BENZ AVTOMOBILI

Вид топлива:
бензин

Масса:
265 кг


Двигатель:
0,954 L



Тип кузова:
мотоколяска
без дверей
Число мест - 2

Компоновка:
переднемоторная,
заднеприводная

Колёсная
формула:
4x2



Ширина: 1200 мм

Высота:
1400 мм

Колея задняя:
1190 мм

Колёсная база:
1450 мм

Длина: 2400 мм




TOSHKENT SHAHAR, AMIR
TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.



+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00



WWW.TAQIQOT.UZ
WWW.CONFERENCES.UZ



MART
№50

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИННОВАЦИЯ, ФАН
ВА ТАЪЛИМ
8-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
ИННОВАЦИИ, НАУКА
И ОБРАЗОВАНИЕ
ЧАСТЬ-8**

**NEW UZBEKISTAN:
INNOVATION, SCIENCE
AND EDUCATION
PART-8**

ТОШКЕНТ-2023



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 50-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 март 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 12 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттита устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тугган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Хамидович «ТИИМСХ»

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

1. Maxmudov Mehrojbek Bahodir o'g'li G'AFUR G'ULOM HAYOTI VA IJODI MADAD HAMDA KUCH!.....	7
2. Utkurova Gulzoda Qahramonovna, Ismatullayeva N.R. XX ASR MALAY-INDONEZ ADABIYOTIDA AYOLLARNING HISSASI	9



АДАБИЁТ

Г’АФУР Г’УЛОМ ХАЙОТИ ВА ИЈОДИ МАДАД НАМДА КУЧ!



Maxmudov Mehrojbek Bahodir o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti
1-kurs B potok 3-guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola G’afur G’ulomning naqadar kuchli ijodkor ekanligini ko’rsatibgina qolmay, uni sabr-toqatli, kuchli inson sifatida ham ko’rishimiz mumkin. Hayotimda og’ir ahvolga tushib qolganimga ham yozuvchi hayoti menga yordam berdi. Albatta, bu o’zbek shoiri G’afur G’ulomning hayoti va ijodi har bir kishiga kuch va madad beradi. Yuqorida keltirilgan so’zlar isbotini maqolani o’qib topish mumkin.

Kalit so'zlar: She'rlar, hayot, adib, kuch, bilim, ota-ona, yosh avlod, maqsad, g'urur.

Yoshlik chog’larimda san’at va adabiyotga mehrim o’zgacha bo’lgan va aynan san’at , adabiyot shaydosi bo’lganim uchun Samarqand viloyatida san’at maktab internatiga berishgan. Keyinchalik bir qancha sabablarga ko’ra oddiy maktabda o’qishimni davom ettirganman. 9 yil maktabda o’qigach TDYU qoshidagi akademik litseyiga o’qish kirganman. 2022-yil, bu yil men uchun maqsadim sari birinchi yilim edi sababi men orzuimdagi oliygoh ya’ni Toshkent davlat yuridik universitetiga suhbat asosida talabalikka tavsiya etildim. Ammo, oldinda meni nimalar kutayoganini bilmas edim. Bu universitet haqidagi tasavvurlarim deyarli to’g’ri chiqdi faqatgina bir narsa meni hayratda qoldirdi. Universitet hayotini o’rganib borar ekanman huquq bilan birgalikda adabiyotga ham e’tibor katta ekan. Ayniqsa, G’afur G’ulom uchun alohida kutubxonaning bir qism ajratilgan, stipendiya va nishonlar ta’sis etilgani buning yaqqol misolidir. Bu haqida bilganimdan keyin universitetga bo’lgan mehrim va hurmatim yanada oshdi. O’z darslarimni qilish bilan birgalikda G’afur G’ulom hayoti va ijodini o’rganib bordim. Vaqt o’tgach G’afur G’ulom haqida maqola yozishga qaror qildim va yozib chop etishga topshirdim. Shundan so’ng mening birinchi maqolam chop etildi va dastlab o’z onajonimga o’qib berdim. Har bir yozgan misralarimni o’qir ekan onam shunday deb aytardi: O’zimni jonim bolam, barakalla! sen bilan faxrlanaman deb ko’p bor ta’kidladi. Maqolamni so’nggi misrasini o’qib bo’lgach peshonamdan o’pib qo’ygandilar. Bunday huzurbaxsh gaplarni onamdan eshitganim so’ng o’zimga bo’lgan ishonchim yanada oshdi. Shu o’rinda bir narsani aytib o’tmoqchiman, ota-onamiz uchun pul yoki boshqa qimmatbaho narsalar kerak emas ularning pensiyalari-yu boshqa mablag’lari o’zlariga yetarli, lekin bilasizmi ota-onalarimiz nimadan hursand bo’ladi va nimani ko’proq istashadi, biron inson bilan telefonda gaplashganida yoki bo’lmasa bayram-u bazmlarda, katta-katta davralarda o’tirganida o’zga odamlardan “O’g’lingiz juda aqlli, odobli bola-da” degan gaplarni eshitsu shuni o’zi kifoya bo’ladi, sababi ota-onamiz uchun boshqa hech narsa kerak emas. Keyinchalik maqolalar ketma-ket yoza boshladim, oynayi jahonga chiqa boshladim onam esa faxr hissi bilan yosharib borar edi. Ammo,



G’afur G’ulom yoshlik chog’idan ota-onasidan ayrilganini o’qib juda hayratlandim. Chunki bu inson ota-onasining o’limidan so’ng ijod qilishni boshlagan bo’lsa, o’z ijodini yuksak darajagacha olib chiqdi. Uning she’rlarida o’tmish va sog’inch ifori kelib turadi, buning yaqqol misoli sifatida “Sog’inish”, “Vaqt” she’rlarda o’z ifodasini topgan.

O’g’lim omon keladi, g’olib , muzaffar,
Gard ham qo’ndirmasdan qora qoshiga.
Ne qilsa otamen, meros hissiyot...
Jondan sog’inishga uning haqqi bor.

Sog’inish she’ridagi bu misralar ham, onaning hissiyotlaridir! va yana bir bora amin bo’lish mumkinki, ota-ona o’z bolasi uchun hamma narsaga tayyorligi yorqin ifoda etilgan.

Lekin bu adib hayotini chuqur tushunmagan ekanman toki 2023-yil 6-mart kunida bir baxtsiz hodisa sodir bo’lmaganigacha qadar. O’sha kuni hayotim oq-qora rang bo’lib qolgan edi, sababi hayotim mazmuni va ma’nosi bo’lgan onamdan ayrildim va o’zimga bo’lgan ishonchim-u maqsadlarim so’ndi. O’sha kuni opamning bir gapi qulog’imdan haligacha ketmaydi: “ 8-mart bayramiga onajonimga sovg’a olgan edim bera olmadim” degan jumlasini mening hayolimda qolib ketdi. Shundan so’ng G’afur G’ulom uchun qanchalik qiyin bo’lganini tushundim. Ancha kun o’zimga kela olmadim va hayotdan maqsadim ham qolmadi deb o’yladim. Ammo, bir kuni G’afur G’ulomni hayotini qaytadan o’qib qoldim va qanday qilib adib ota-onasi o’limidan so’ng o’zida kuch va madad topdi deya savol berdim. Lekin adibni qayerdan ishonch, madad olganini bilmadim-u, ammo G’afur G’ulom hayotidan tortib ijodigacha menga kuch va madad bera oladi. Chunki, onamdagi faxr tuyg’usini so’ndirmasligim va oldin qarab intilishi kerakligiga ishonch hosil qildim va onam meni osmonlardan turib ham faxrlanishini xohladim. Balkim, G’afur G’ulom shuning uchun hayoti davomida harakat qilishdan va yuksak e’tiborga sazavor bo’lishga intilgandir ya’ni ota-onasi undan osmonlarda turib faxrlanishini istagani uchun hamdir.

Shu sababdan biz yosh avlod G’afur G’ulom izdoshlarimiz, undagi hislatlar bizga ham meros bo’lib o’tgan va shuning uchun ham biz yoshlar ijod qilishdan tuxtamaymiz. Aytishadi-ku, hayotga hamma birdek keladi uni qanday davom ettirish o’z qo’limizda. Axir, o’zbek shoiri G’afur G’ulom: A’lo mamlakatning a’lo farzandi, Bilib qo’yki, seni Vatan kutadi!- degan misralari ham bejizga yozilmagan.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

https://uz.wikipedia.org/wiki/G%CA%BBafur_G%CA%BBulom

<https://ilmlar.uz/gafur-gulom-shearlari-gafur-gulom-asarlari/> “Sog’inish” she’ri.



XX ASR MALAY-INDONEZ ADABIYOTIDA AYOLLARNING HISSASI

Utkurova Gulzoda Qahramonovna

2-kurs talabasi, Sharq filologiyasi va tarjima-shunoslik fakulteti,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Ilmiy rahbar: Ph.D Ismatullayeva N.R.

Email: guliutkurova@gmail.com

Telefon raqam: +998974779117

Kirish

Malayziyadagi ayollar adabiyoti asarlarining mazmuni, tili va uslub jihatlari yoki “ayollari yozuvchi sifatida o‘rganish” zarurati o‘ziga xos ilmiy tadqiqotdir. Malayziyada ayol yozuvchilarining paydo bo‘lishi, adabiyot va intellektualizm rivojiga qo‘shgan hissasi Ibu Zayn, Kamariah Saadon, Jahlelavatidan tortib Adibah Amin, Xadicha Hoshim, Zahara Navaviy, Fotima Busu va Arma Nordingacha bo‘lgan ilg‘or siymalar bilan bog‘liq. Malayziyadagi ayol yozuvchilar orasida roman yozishning rivojlanishi, uslubiyati va uslublariga asoslanib, ayol yozuvchining hissasi faqat malay adabiyoti xazinasini boyitish bilan cheklanib qolmaydi, chunki ular o‘z nuqtai nazaridan g‘oya-fikrlari yo‘naltirishni ham joriy etadilar, ayollar tajribasi o‘zlarining boyliklari yoki adabiy asarlarni qurishdagi muhim asoslari borligi bilan farqlanadi.

Kalit so‘zlar: ASEAN, Ibu Zain, Panggilan ibunda, Jahlelavati, Mariya Zaynal

Ayol yozuvchilarning shaxsiy tajribasi va ijodiy jarayoni haqida ma‘lumotlar va talqinlar turlicha, Malay adabiyotida ayol yozuvchi bo‘lish yo‘lidagi qiyinchiliklarga e‘tibor qaratiladi, uning nashr etilgan she‘rlari va jamiyatdagi ayollarning og‘ir ahvolini aks ettiruvchi qisqa hikoyalari o‘ziga xos tasvirlangan. Bu an‘anaviy madaniy cheklovlar sharoitida ayol ijodkor yozuvchining o‘sishi va shaxsiy tajribalar adabiyotga qanday qo‘llanilishi haqida amaliy tadqiqotlar ham mavjud. Janubiy-Sharqiy Osiyo yozuvchilari mukofoti va ASEANning eng yaxshi shoiri uchun Sunthorn Phu mukofoti bilan taqdirlanishi o‘ziga xos tarixga ega. Malay yozuvchilari dunyoda ayollarning paydo bo‘lishi va ishtiroki haqidagi munozarani Majalah Guru yoki Bulan Melayudagi asarlari orqali qizlari uchun ta‘lim olishni qat‘iy targ‘ib qilgan Ibu Zain (Xaj Zainon Sulaiman, 1903-1989) kabi yetakchi shaxslarga murojaat qilmasdan to‘liq bo‘lmaydi. Ibu Zain Malayziyaning ilk taniqli ayol arbobi bo‘lib, ingliz tilida ta‘lim olgan va o‘qituvchi bo‘lgan. 1927-yilda u Johor shahridagi Malay qizlar maktabining nazoratchisi etib tayinlangan. U Malayziyada birinchi ayollar jurnali Bulan Melayuni ta‘sis etgan. Malayziyada ijodkorlik (ayniqsa, zamonaviy fantastika) 1934-yilda Jurnalda chop etilgan Hafsaning “Kesedihan perkahwinan paksa” (Majburiy nikoh baxtsizligi) qissasi bilan boshlangan. O‘sha yilning o‘zida Siti Nurmah tomonidan yozilgan “Vaktu isyak menangkap pencuri” nomli fantastika nashr etildi. Ammo, ayol yozuvchilar tomonidan yozilgan romanlar ancha kechroq, ya‘ni 1941-yilning oxirlarida, erkaklar yozgan birinchi romanidan taxminan 15 yil o‘tib paydo bo‘ldi¹.

Dastlabki romanga “Panggilan ibunda” kiritilgan. Unda vatanni himoya qilish uchun jangga ketgan eri Salimdan qolgan sodiq xotin Halimaning hikoyasi tasvirlangan. Ular jamiyatning turmush tarzi va tafakkurida sezilarli darajada kuchli elementlardir. Shunday qilib, diniy e‘tiqod Malayziyadagi ayollar kurashiga ta‘sir qiluvchi o‘ta muhim omil hisoblanadi, aytilgan diniy e‘tiqod va urf-odatlar. Ushbu dastlabki romandagi Halima tasviri sodiq, sodiq va nikoh institutiga qat‘iy mos keladigan ayolning ideal xususiyatlarini, ya‘ni yozuvchilik qoidalariga asoslangan tasvirni ta‘kidlagan. Unda yozuvchi ayollarning jamiyatdagi mavqeini o‘zgartirishga harakat qilgan konservativ qarashlarni aniqlash mumkin edi. Kamariah Saadon bu paradigmani buzishga urinib, ayollarni nafaqat maishiy sohada, balki jamoat sohasiga prognoz qilingan holda taqdim etish orqali, turli muhit va ijtimoiy harakatlardagi Halima xarakteri orqali ko‘rinadi. Yozuvchi ushbu romani orqali malay va ingliz maktablarida o‘qish orqali (xuddi erkaklar kabi) yuqori darajadagi ta‘lim olish muhimligini ham ta‘kidlagan. jamiyat va millat. Ayollarning xohish-istaklari va qadriyatlarini mo‘tadil xarakterga ega bo‘lsa-da, yozuvchi ushbu roman orqali ayolning ruhini o‘z xarakterini shakllantirishga qo‘shgan, bular shaxsiy soha bilan sinonim bo‘lgan an‘anaviy

¹ Bassnett, Susan. 1993. Comparative Literature: A critical introduction. Oxford UK & Cambridge USA: Blackwell Publisher. P23.



inikoslar orqali aniqlanadi. Yozuvchi Jahlelavati “Cincin Kahwin” (To‘y uzuklari, 1948) orqali o‘zi sevmaydigan erkak Daraanga turmushga chiqishga majbur bo‘lgan yosh ayol Nirvonining hissiy tajribasini ta’kidladi. Asarda u itoatkor shaxs sifatida tasvirlangan. Ammo turmush o‘rtog‘ining mag‘rur va beg‘araz tabiati tufayli nikoh baxtli bo‘lmagan. Sabr va aql-idrok bilan baraka topib, ayol halokatli nikohdan xalos bo‘lishga muvaffaq bo‘ldi va uni sevib, unga g‘amxo‘rlik qilgan yigitiga qaytib keldi. Garchi bu ssenariy yozma ravishda odatiy xususiyatlarni ta’kidlagan bo‘lsa-da, muhimroq element ko‘rsatilgan. Bu romanda muallif ayolning orzu va intilishlarini ro‘yobga chiqarishdagi sa‘y-harakatlarini tasvirlab bergan edi. Muallif o‘z romani orqali ayollarning xohish-istaklari va turmush o‘rtoqlarini aniqlashda erkinligini himoya qilgan. Shu bilan birga, muallif majburiy nikoh yoki o‘zaro muhabbatga asoslanmagan nikohning salbiy tomonlarini fosh qilgan. Bular Malayziyadagi yozuvchi ayollarning ilk adabiy asarlari bo‘lib, jamiyatga yangi g‘oyalarni, xususan, ayollarning mavqeini ko‘tarishga qaratilgan sa‘y-harakatlarni yaqqol ko‘rsatdi. Ijtimoiy qadriyatlar va me‘yorlarni buzish holatlarini tasvirlaydi. Yozuvchi tomonidan tashkil etilgan hikoya strategiyalari ayol o‘z erkinligiga o‘z jamiyatining diniy qadriyatlari, urf-odatlarini va me‘yorlariga zid bo‘lmagan vositalar orqali erishishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Bunday xususiyatlar mustaqillikdan keyingi adabiyotlarda, Adibah Aminning “Seroja Masih Di Kolam” (1968), Xadicha Hoshimning “Badai Semalam” (1968) kabi romanlarida ko‘proq uchraydi. Misol uchun, “Badai Semalam” ayolning o‘qishni universitet darajasida davom ettirish orzusini ro‘yobga chiqarish uchun kurashi va matonati haqida hikoya qiladi. Mazniyning markaziy qahramoni orqali yozuvchi o‘z ambitsiyalariga erishish uchun qat‘iyatli, sabrli va sodiq ayolga e’tibor qaratgan. O’sha paytda kambag‘al malay ayol uchun bir muncha rivojlangan deb hisoblangan. Mazniyning boy oilaning yolg‘iz farzandiga uylanganidan keyin o‘qishni davom ettirishga intilishi ayollarda avtonom fazilatlarini rivojlantirish va egallashga intilish tushunchasini oshirdi. Mazniy erkaklarga qaramlikni rad etuvchi sifatida tasvirlangan, (jumladan, o‘z eri ham) shaxsiy maqsadiga erishish yo‘lida muhabbat tuyg‘ularini, his-tuyg‘ularini bir chetga surib qo‘ygan darajada, uning fikrlashi, shuhratparastligi va orzularini amalga oshirish uchun ko‘p mehnat qilishga tayyor.

Ushbu romanning hikoya qilish texnikasi va uslubiga asoslanib, yozuvchi an’anaviy xususiyatlarni qoldirib, o‘z muallifligida ixtirolik xususiyatini qo‘llaganini ko‘rish mumkin. Ayollar patriarxat kishanlaridan ozod bo‘lgan o‘z makoniga ega bo‘lishlari mumkin; ular ko‘proq ovozli, ko‘tarinki ruhga aylangan; Ularning aqliy va aql-idrok xususiyatlari namoyon bo‘lib, azob-uqubatlaridan qutulish yo‘lini topishga qodir ekanliklarini ta’kidladilar. Umuman olganda, bu roman qizlar tarbiyasini birinchi o‘ringa qo‘ymaydigan an’anaviy ijtimoiy qadriyatlarni yo‘q qilishda muvaffaqiyatli deb topildi va bu yo‘l bilan yozuvchi jamiyatda oliy ma’lumotli ayollarni yetishtirish g‘oyasini ilgari surdi. Xadicha Hoshimning bu birinchi romani o‘z nuqtai nazaridan ayollarning huquq va jamiyatdagi mavqei uchun kurashida muhim bosqich sanaladi. Ixtiro xususiyatlari ham ushbu romanning qisman tayyor bo‘ladi¹.

1970-yillarga kelib, ayol yozuvchilar roman yozishning odatiy xususiyatlaridan chetga chiqib, tobora ijodiy va innovatsion bo‘lib qoldilar. Ixtiro xususiyatlari Fotima Busuning “Ombak Bukan Biru” (1977) asarida ko‘rinib turibdi. Ushbu roman 1970-yillarda ayollarning o‘z xohish-istaklari va tanlovlarini belgilash huquqi uchun qattiq va qat‘iy kurashgan malay o‘qituvchisi Imroning istaklarini himoya qilish orqali yozuvchining an‘analardan voz kechish jasoratini namoyon etadi. Biroq, bu islohotlar Fotima Busu tomonidan yaratilgan asar umumiy ta’sir qoldirmadi, chunki bunday uslub keyingi yozuvchilar tomonidan davom ettirilmagan. Fotima Busuning jasorati va kuchi keyinchalik “Salam Mariya” (2004) da kengaytirilgan. Mariya Zaytun kurashining yo‘nalishi, shunga qaramay, kurashdan farq qiladi. Yozuvchi ushbu romani orqali islomiy xususiyatlar bilan bir qatorda jozibali mustahkam xususiyatlarni ham oldinga olib chiqdi va inson va Xudo o‘rtasidagi munosabatlarni va odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilash uchun juda ko‘p ma’lumot va ta’limotlar berdi. Salam Mariya Xudoga bo‘lgan sevgisini anglagan turmushga chiqmagan Mariya Zaytun ismli ayol haqida hikoya qiladi. Yozuvchi ayolning tajribasini jingalaklarga past nazar bilan qaraydigan jamiyatda qo‘llagan. Ular “anak dara tua” (kekxa kanizaklar) deb ataladi. Noto‘g‘ri fikrda bo‘ladilar, turli tuhmatlar va haqoratlar o‘rtaga tashlaydilar. Mariya Zaynalning turmushga chiqmagan ayol sifatidagi tajribasi qiyinlashdi, chunki jamiyat a’zolari uni nafaqat izolyatsiya qilishdi, balki uni dushman deb bilishdi; uni hamma yomon ko‘rardi. Bu tasvir jamiyatning

1 Didin Syafrudin, Argumen supremasi atas penafsiran klasik qs al-nisa. UQ, Edisi khusus,p,6.



turmushga chiqmagan ayollarga nisbatan qo‘rquvini aks ettiradi, chunki bu ularning boshqalar kabi o‘z hayotlarini normal o‘tkazish imkoniyatidan mahrum qiladi. Yozuvchi ushbu roman orqali ayollarni himoya qilib, aynan shu guruh ekanligini ko‘rsatib berdi. Ba‘zan Xudoning nazdida boshqalardan ko‘ra olijanobroq va balandroqdir. Uning hikoya qilish strategiyasiga asoslanib, yozuvchining fikrlari o‘quvchiga bu dunyodagi shaxsning mavqei va mavqei odamlarning o‘zlari orasida emas, balki o‘zlari tomonidan belgilanadi, degan fikrni yetkazadi¹. Shuningdek, yozuvchi haqiqatni so‘zlashga, huquqbuzarliklarning oldini olishga, jamiyatda avj olib ijtimoiy illatlarni bartaraf etishga qodir bo‘lgan yangi avlod ayollarining dunyoga kelishini umid qilgan. mutafakkir va ijtimoiy tanqidchi, Malay sivilizatsiyasi talablariga muvofiq jamiyat axloqini rivojlantirish takomillashtirishga yordam berdi

Bibliografiya

1. Bassnett, Susan. 1993. Comparative Literature: A critical introduction. Oxford UK & Cambridge USA: Blackwell Publisher. P23.
2. Didin Syafrudin, Argumen supremasi atas penafsiran klasik qs al-nisa. UQ, Edisi khusus, p,6
3. Zainah Anvar, The politics of multiculturalism: Pluralism and citizenship in Malaysia, Singapore and Indonesia, 2001, p,23.
4. https://ogahiy.tsuos.uz/malay-indonez-adabiyoti-rivojida-amir-hamzah-sheriyatining-orni/#_ftnref1
5. Atmani Hardja 1962. “Tindjauan Kesusastraan mengenai Tjerita Rakjat,” Pustaka Budaja, III, 9, pp. 35-40.
6. Ismail Hussein 1967. “Sebuah Cherita Rakyat Melayu,” Tenggara, I, pp. 60-75.
7. Balai Pustaka 1963-1972. Tjerita Rakyat I-IV, Djakarta.

1 Zainah Anvar, The politics of multiculturalism: Pluralism and citizenship in Malaysia, Singapore and Indonesia, 2001, p,23.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 8-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.03.2023

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000